

ISSN:
3060-5245

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Iyun № 6, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP
.....

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'lg'in Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufataxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 907 sahifa.
E'lon qilishga 2026-yil 30-iyunda
ruxsat etildi.



“AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR” ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNALI

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati.

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI

- 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik
- 06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik
- 06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika
- 06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik
- 06.01.06 – Sabzavotchilik
- 06.01.07 – Mevachilik va uzumchilik
- 06.01.08 – O‘simlikshunoslik
- 06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish
- 06.01.11 – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash
- 06.02.02 – Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini oziqlantirish va ozuqa tayyorlash texnologiyasi
- 06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi
- 06.03.01 – O‘rmon ekinlari. Seleksiya, urug‘chilik va shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish. O‘rmonlar agromelioratsiyasi va himoya o‘rmonlarini barpo etish, Dorivor o‘simliklar introduksiyasi, yetishtirish texnologiyasi va agrofarmekologiyasi.





MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

BAKAYEV ZIYOVUDDINXON TOSHBOLTA O'G'LI

Turizm va mehmondo'stlik sohasining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....16

ИБРАГИМОВА МАДИНА ИСМОИЛОВНА

Инвестиции в человеческий капитал как фактор экономического роста.....25

MAXMUDOV JASURBEK ERGASHEVICH

Investitsion salohiyatni oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni.....35

MUROTOSIMOV SHOXRUX ABDISALIMOVICH

Korporativ ijtimoiy boshqaruv tizimini rivojlantirishda ESG tamoyillari va raqamli texnologiyalarning roli.....43

ESHMIRZAYEV SODIKJON ERKONBOY O'G'LI

Sanoat korxonalarida quyosh energetikasi loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish.....53

IBROXIMOVA NAFOSAT ABDUSATTOR QIZI

Raqamli iqtisodiyotda mehnat unumdorligini oshirishning innovatsion mexanizmlari.....60

QODIROVA MOHINUR BAHODIR QIZI

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish.....69

XAYDAROVA E'ZOZA SHUKURULLAYEVNA

Korxonalarda innovatsion salohiyatni boshqarishning rivojlanish tendensiyalari.....78

MAMANOV MUKHAMMADAMIN

Comparative analysis of management strategies for tourism enterprises in developed and developing countries.....84

TOXIROVA NIGORA ZOKIRJON QIZI

Mintaqaviy korxonalar faoliyati samaradorligining tashkiliy va funksional diagnostik rivojlanish tendensiyalari.....96

ODILOVA DILNOZAXON BARNAYEVNA

Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning usullari.....103





TOSHOV MIRZABEK HAKIMOVICH

Buxoro viloyatida sanoat va turizm integratsiyasi: iqtisodiy samaradorlik tahlili.....107

ABDULLAEV MUZAFFAR ABDUJABBAROVICH

Evaluation of the results of innovation activities, decision-making and its formation.....112

RAHMONOVA TILLA'OY MALIK QIZI

Hududlararo sanoat diversifikatsiyasi asosida mintaqaviy rivojlanishni baholashning iqtisodiy-matematik modellari.....119

IBRAGIMOV AZIZ TURAYEVICH

Buxoro viloyatida erkin iqtisodiy zonalar faoliyati va asosiy ko'rsatkichlari.....125

NIGMATJONOV SARDOR ABDUMANNONOVICH

Hayot faoliyati xavfsizligi fanining fanlararo bog'liqligi: nazariy asoslar va amaliy yondashuv.....138

ИЛХОМЖОНОВА ФОТИМА МУХИДДИНОВНА

Методические основы оценки инвестиционного потенциала регионов....145

RO'ZMETOV NOSIRJON XAMIDJON O'G'LI

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirishning institutsional mexanizmlari va istiqbollari.....155

RAHMONQULOVA KOMILA MUHAMMADI QIZI

Surxondaryo viloyatida iqtisodiy o'sish omillarining ekonometrik tahlili.....164

ABDUNAZAROV SAIDAXMAT ABDUMALIKOVICH, SHAMSIYEVA DILSHODA ASQARALI QIZI

Korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion boshqaruvning roli.....173

OBILOV MIRKOMIL RASHIDOVICH

Investitsiya resurslarini optimal yo'naltirishda moliyaviy savodxonlikning roli.....178

MAMATKULOVA XURSHIDA NASRULLAYEVNA

Xitoy tajribasi asosida O'zbekistonda kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....185

OBIDOVA FERUZA YAHYOYEVNA

Korxonalarda yashil menejment tizimini joriy etish samaradorligi.....191





BAZAROVA FAYYOZA TUXTAMURODOVNA

Korxonalar marketing boshqaruvida elektron tijorat va Omni-kanal strategiyalarini qo'llashning asosiy jihatlari.....198

KUZIYEVA GULNOZA RASHIDOVNA, DILRABO SAYDALIYEVA BAKHRIDDIN KIZI

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati.....204

DONIYEV SHAHOB O'TKIR O'G'LI, HALIMOV JAVLONBEK SHAHRIYOROVICH

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va inflyatsiya o'rtasidagi iqtisodiy bog'lanish.....210

OXUNOVA OYGUL USMONJON QIZI

Genderlik tengligi va barqaror mehnat bozorini rivojlantirish: OECD va Markaziy Osiyo mamlakatlarining qiyosiy tahlili.....215

ISLOMOV JAVOHIR ISKANDAR O'G'LI

O'zbekiston tijorat banklarida islomiy moliya darchalari faoliyatining buxgalteriya hisobini yuritish va dasturiy ta'minot integratsiyasi istiqbollari.....221

МУХАММАДИЕВ НАУФАЛБЕК АЗИЗБЕК УГЛИ

Влияние электронной коммерции на рост валового внутреннего продукта нашей страны.....230

TAIROVA ZARNIGOR MAMMAT QIZI

Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarining resurs salohiyatini boshqarish usullari.....238

BAZAROVA FAYYOZA TUXTAMURODOVNA

To'qimachilik tovarlari raqobatbardoshligini oshirishda iste'molchilar xulq-atvorining ta'siri.....248

ЮЛДАШОВА ГАВХАР ХУСНИТДИНОВНА

Приоритетное значение инновационных подходов и стратегического развития в системе корпоративного управления.....257

ABDUSALOMOVA FARIDA OLIMJON QIZI

Raqamli transformatsiyaning xizmat ko'rsatish sohasida bandlik va daromadlarga ta'siri.....262





XASANOVA RAYXON BOZOROVNA

Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida banklarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari.....271

OBIDOVA FERUZA YAHYOYEVNA

Korxonalarda innovatsion madaniyatni shakllantirish mexanizmlari.....279

SULEYMANOV FARRUX RAXIMJON O'G'LI

Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan infratuzilma aktivlarini boshqarish modellari.....284

TURDIMURATOV MAQSUD MUZAFFAROVICH

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida qurilish sohasida zamonaviy boshqaruv tizimlarini iqtisodiy ahamiyati.....290

TURUMOVA DILDORA ABDUMANNONOVNA

Tijorat banklarida daromad va xarajatlar hisobining zamonaviy holati va rivojlantirish istiqbollari.....297

SHODMONQULOV KAMOLIDDIN MURODILLAYEVICH

Kichik sanoat zonalarini rivojlantirish orqali hududiy muammolarni bartaraf etish yo'llari.....304

MO'MINOVA KANIZAXON YO'LDASHALI QIZI

Kichik korxonalarda eksport salohiyatini oshirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.....311

MAXTIMOVA ZARAFSHON OLLOYOROVNA

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida yashil moliyalashtirishga ta'sir etuvchi omillarni optimallashtirish istiqbollari.....322

TAIROVA ZARNIGOR MAMMAT QIZI

O'zbekiston ishlab chiqarish korxonalarining resurs salohiyatidan samarali foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.....333

ASLANOVA DILNOZA FATILLOYEVNA

Qishloq xo'jaligi va turizm integratsiyasi: agroturizmning mintaqaviy iqtisodiyotga ta'siri.....340

SAFAROV BEKZOD ISTAMOVICH

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-texnik mahsulotlarning mohiyati, turlari va o'ziga xos xususiyatlari.....348





LAZIZ ABDUGHAFFOROVICH URINOV

Main directions of banking services development in Uzbekistan and their impact on efficiency of banking activity.....356

MIRZAYEVA RO'ZIGUL AZAMAT QIZI, ESHQULOVA NASIBA NORMO'MINOVNA

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish asosida takomillashtirish.....363

SULEYMANOV FARRUX RAXIMJON O'G'LI

Madaniy meros obyektlari va tarixiy binolarni aktivlar menejmenti asosida muhofaza qilish va saqlash metodikasi.....370

SRAJIDINOVA NODIRA SHAVKATOVNA

Sanoat tarmoqlarini ixtisoslashuv va diversifikatsiya asosida rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi.....378

АКАБИРХОДЖАЕВА ДИЛФУЗА РУСТАМОВНА

Оптимизация запасов энергетических ресурсов агропредприятия на основе экономико-математического моделирования в Mathcad.....384

ALIMOVA SHAMSIYA ABIDOVNA

Ta'lim xizmatlari eksporti milliy iqtisodiyotni rivojlantirish omili sifatida.....391

UROZOVA SHAXLO, HAZRATQULOV SHAHBOZ

Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda investitsiyalarni rivojlantirish yo'llari.....399

ХОДЖАЕВА ДИЛБАР

Сельский туризм как инструмент сокращения бедности сельского населения: опыт и перспективы Бухарской области.....406

KARIMOV SHAHBOZXO'JA XAMDAMJON O'G'LI

Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....422

МУХАММАДИЕВА НОДИРА АХМАДОВНА

Территориальный маркетинг в туризме: зарубежный опыт формирования и реализации концепции.....428

SIROJEV NURBEK G'ULOMIDDIN O'G'LI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida risklarni boshqarish tizimlarini rivojlantirishning xorij tajribalari.....440





ELBOYEVA SHAXZODA OLIMOVNA

Ipakchilik klasterlari uchun integratsiyalashgan investitsion boshqaruv modeli.....446

URAZMATOV JONIBEK MUSURMANOVICH

Elektron hisob-faktura va real vaqt rejimidagi nazorat mexanizmlarining iqtisodiy tahlili.....459

RAHIMOVA DURDONA RAVSHANOVA

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda raqamli transformatsiya jarayonlarini takomillashtirish yo'nalishlari.....465

XODJAYEVA MUHAYYO ULMASOVNA

Xalqaro audit standartlarini o'rganishda auditning shakllanishi va turlari.....475

FARMONOV OTABEK HAYITMURODOVICH

O'zbekiston Respublikasi Jahon savdo tashkilotiga a'zolicigining qishloq xo'jaligiga ta'siri.....484

UBAYDULLAYEV G'AYRAT ZUVAYTOVICH, G'ANIYEV SARDOR TOSHMURODOVICH

Raqamli transformatsiyaning boshqaruv samaradorligiga ta'sirini empirik tahlil qilish.....491

МАКСУМХАНОВА АЗИЗАХОН МУКАДИРОВА, САЙДАЛИМОВА ДИЁРАХОН БАХОДИРОВА, ТУХЛИЕВ НУРИСЛОМ УЧКУН УГЛИ

Развитие деятельности сферы услуг с использованием цифровых технологий.....498

MAHMUDOV FAYZULLA MURODULLAYEVICH

Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy soha rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarining ahamiyati.....506

BEGBUTAEV HASAN ARALOVICH

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning institutsional omillari.....512

UBAYDULLAYEV G'AYRAT ZUVAYTOVICH, SHODMANOV TOSHEMIR RO'ZIYEVICH

Raqamli transformatsiya va boshqaruv samaradorligini kompleks baholash....520

BEGBUTAEV HASAN ARALOVICH

Yashil iqtisodiyot va ekologik investitsiyalarning samaradorligi.....526





YULDASHEVA GULMIRA AZATOVNA

Hududiy sharoitlar asosida qishloq xo'jaligi tarmoqlarida diversifikatsiya jarayonining shakllanishi.....533

G'OFUROVA LOLA RUYIDDINOVNA

Elektron tijoratning tadbirkorlik rivojlanishidagi o'rni va istiqbollari.....542

MIRZATAEV SALAMAT MURATBAEVICH

Improvement of the scientific basis of the application of smart technologies in reducing ecological risks in the agricultural sector.....550

XAYDAROV JAHONGIR BAXTIYAROVICH

Parrandachilikning rivojlanish bosqichlari hamda unga mos holda shakllangan xizmatlar turlari.....558

ТАДЖИЕВА САЙЕРА УРАЛОВНА, БОЛТАЕВ ЖАСУРБЕК ГУЛЯМОВИЧ

Территориальный маркетинг, экономическая специализация и конкурентоспособность как факторы развития Бухарской области.....565

QULMATOVA SAYYORA SAFAROVNA

O'zbekiston uy xo'jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlariga talabning ekonometrik tahlili va LA-AIDS modeli asosida prognozlash.....577

ISAXODJAEVA ZULFIYA SHUXRATULLAEVNA

O'zbekistonda agrar va elektron tijorat sohalarida masofaviy raqamli texnologiyalarini tashkiliy-huquqiy asoslari.....585

SAITMURATOV SAIMURAT MASHARIP O'G'LI

Budjet tashkilotlarida ichki auditni xavfga asoslangan metodologiya asosida takomillashtirish.....598

FAXRIDDINOV ABDULHAKIM ZIYAUDDINOVICH

Oziq-ovqat xavfsizligini taminlashda sabzavot ekinlari urug'chiligining ahamiyati.....607

XADJIBEKOVA AZIZA AKBAROVNA

Ichki va tashqi turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....615

KIDIRNIYAZOV AJINIYAZ SHERNIYAZOVICH

Innovative mechanisms of service delivery in construction projects based on artificial intelligence.....621





BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDITNI XAVFGA ASOSLANGAN METODOLOGIYA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

SAITMURATOV SAITMURAT MASHARIP O'G'LI

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti, PhD

E-mail: saitmuratovsaitmurat@gmail.com

ORCID: 0009-0008-2048-319X

Annotatsiya. Maqolada budjet tashkilotlarida ichki audit faoliyatini xavfga asoslangan metodologiya (risk-based internal auditing) asosida qayta qurish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi — ichki audit mavzularini tanlashda xavflarni identifikatsiya qilish, baholash va ustuvorlashtirishning yaxlit, takrorlanuvchan va miqdoriy o'lchovga ega bo'lgan ko'p mezonli uslubini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot metodologiyasi sifatida hujjatlarni tahlil qilish, ekspert baholash, ierarxialarni tahlil qilish jarayoni (AHP) va ko'p mezonli qaror qabul qilish yondashuvlari qo'llanilgan.

Kalit so'zlar: ichki audit, xavfga asoslangan audit, budjet tashkilotlari, xavflarni baholash, ko'p mezonli tahlil, moliyaviy ahamiyat, nazorat zaifligi, budjet intizomi, risk indikatorlari, ustuvorlashtirish, Xavf Ustuvorlik Indeksi.

Аннотация. В статье исследуются вопросы реформирования внутреннего аудита в бюджетных организациях на основе риск-ориентированной методологии (Risk-Based Internal Auditing). Цель исследования заключается в разработке комплексного, воспроизводимого и количественно измеримого многокритериального подхода к идентификации, оценке и приоритизации рисков при выборе объектов внутреннего аудита. В качестве методологии исследования использованы анализ документов, экспертная оценка, метод анализа иерархий (AHP) и методы многокритериального принятия решений.

Ключевые слова: внутренний аудит, риск-ориентированный аудит, бюджетные организации, оценка рисков, многокритериальный анализ, финансовая значимость, слабость внутреннего контроля, бюджетная дисциплина, индикаторы риска, приоритизация, Индекс приоритетности риска.

Abstract. This article examines the issues of reforming internal audit in budgetary organizations based on a risk-based internal auditing methodology. The objective of the study is to develop an integrated, repeatable, and quantitatively measurable multi-criteria approach for identifying, assessing, and prioritizing risks in the process of selecting internal audit engagements. The research methodology is based on document analysis, expert evaluation, the Analytic Hierarchy Process (AHP), and multi-criteria decision-making techniques.

Keywords: internal audit, risk-based auditing, budgetary organizations, risk assessment, multi-criteria analysis, financial significance, control weakness, budget discipline, risk indicators, prioritization, Risk Priority Index.

KIRISH

Davlat moliyasini samarali boshqarish, budjet mablag'laridan oqilona va maqsadli foydalanish hamda moliyaviy intizomni ta'minlash zamonaviy davlat boshqaruvining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimini takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, Prezidentning 2019-yil 23-fevraldagi PQ-4611-son hamda 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 24-martdagi 129-son qarori va budjet tashkilotlarida ichki audit xizmatlarining tashkil etilishi





moliyaviy nazoratning profilaktik va tizimli xususiyatini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ichki audit amaliyotida tizimli muammo saqlanib qolmoqda: audit obyektlari ko'p, ularning ahamiyati va xavf darajasi turlicha bo'lsa-da, ichki audit xizmatlarining inson va vaqt resurslari cheklangan. An'anaviy, siklik (rotatsion) yoki to'liq qamrovga asoslangan yondashuvda barcha obyektlar navbati bilan, ularning haqiqiy xavf darajasidan qat'i nazar, tekshiriladi. Bu esa yuqori xavfli sohalarning kechikib qamrab olinishiga, past xavfli obyektlarga esa ortiqcha resurs sarflanishiga olib keladi. Bundan tashqari, audit mavzularini tanlash ko'pincha auditorning subyektiv mulohazasiga tayanadi va hujjatlashtirilgan, takrorlanuvchan miqdoriy asosga ega bo'lmaydi.

Xalqaro amaliyotda bu muammo xavfga asoslangan ichki audit (RBIA) metodologiyasi orqali hal etiladi. Ichki auditorlar institutining (IIA) Global Ichki Audit Standartlari (GIAS) 9.4-talabiga ko'ra, yillik audit rejasi hujjatlashtirilgan va muntazam yangilanib turuvchi xavf bahosiga asoslanishi shart. Biroq budjet tashkilotlari sharoitida xavfni baholashning aksariyat modellari faqat ikki o'lchov — ehtimollik va oqibat — bilan cheklanadi va davlat sektoriga xos moliyaviy ahamiyat, nazorat muhiti zaifligi, buzilishlarning takrorlanuvchanligi hamda raqamli tizimlardan keladigan avtomatik signallarni yetarlicha qamrab olmaydi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — ushbu bo'shliqni bartaraf etib, budjet tashkilotlarida xavflarni olti o'zaro to'ldiruvchi mezon asosida identifikatsiya qilish, baholash va ustuvorlashtirishning yaxlit uslubini ishlab chiqishdir. Ishning ilmiy yangiligi sifatida xavflarni moliyaviy ahamiyat, sodir bo'lish ehtimoli, ehtimoliy oqibat, nazorat zaifligi, takroriylik va elektron risk signallari asosida baholaydigan ko'p mezonli Xavf Ustuvorlik Indeksi (XUI) modeli takomillashtirilgan. Maqola IMRAD tuzilmasiga muvofiq adabiyotlar sharhi, metodologiya, natijalar, muhokama va xulosa qismlaridan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xavfga asoslangan ichki audit kontseptsiyasining nazariy asoslari xalqaro standart va amaliyotlarda batafsil ishlab chiqilgan. RBIA metodologiyasining bosh tamoyili — audit resurslarini xatarning ahamiyatiga qarab taqsimlash, ya'ni asosiy e'tiborni boshlang'ich (inherent) xavf va nazorat samaradorligi hisobga olingandan keyin qoladigan qoldiq (residual) xavf eng yuqori bo'lgan sohalarga qaratishdir. P. Griffiths o'zining xavfga asoslangan audit bo'yicha asarida bu yondashuvni siklik va muvofiqlikka asoslangan auditga qarama-qarshi qo'yadi va xavf ishtahasi (risk appetite) tushunchasini audit rejalashtirishning markaziy mezoniga aylantiradi.

IIAning Global Ichki Audit Standartlari (2024) va «Xavfga asoslangan ichki audit rejasini ishlab chiqish» amaliy qo'llanmasi audit olamini (audit universe) shakllantirish, har bir auditga yaroqli birlikni xavf omillari bo'yicha baholash va reyting asosida ustuvorlashtirishni tavsiya etadi. Qo'llanmada xavfni baholashda ham miqdoriy, ham sifat usullari, shuningdek, atamalar, ahamiyatlilik (materiality) va reyting shkalalarini standartlashtirish zarurligi ta'kidlanadi.





Ehtimollikning past, o'rta, yuqori darajalari va oqibatning ahamiyatsiz, sezilarli, o'ta yuqori toifalari odatda 1–3, 1–5 yoki 1–10 ko'rinishidagi shkalalarda baholanadi.

Nazorat muhiti va boshlang'ich xavfni baholashda COSO ramkalari muhim metodologik asos beradi. COSOning «Ichki nazorat — yaxlit ramka» (2013) hujjati nazorat muhiti, xavfni baholash, nazorat tadbirlari, axborot va kommunikatsiya hamda monitoring komponentlarini, «Korporativ xavfni boshqarish» (2017) ramkasi esa xavfni strategiya va faoliyat samaradorligi bilan bog'lashni belgilaydi. Davlat sektori uchun INTOSAI tashkilotining ISSAI standartlari moliyaviy nazoratning fundamental tamoyillari va davlat auditining o'ziga xosligini tartibga soladi.

Ko'p mezonli qaror qabul qilish nazariyasida T. Saatining ierarxiyalarni tahlil qilish jarayoni (AHP) bir nechta o'lchovni juftlik bo'yicha taqqoslash orqali izchil vaznlarga keltirish imkonini beradi. Bu yondashuv audit xavfini baholashda turli mezonlarning nisbiy ahamiyatini hujjatlashtirilgan va izchillik koeffitsiyenti bilan tekshiriladigan tarzda aniqlashga xizmat qiladi.

O'zbekistondagi tadqiqotlar va me'yoriy hujjatlarda budget tashkilotlarida ichki auditning o'rni, audit tadbirlarini o'tkazish va natijalarini rasmiylashtirish masalalari yoritilgan. Budget kodeksi, «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonun (O'RQ-677, 2021-yil 25-fevral), ichki auditning milliy standartlari va idoraviy nizomlar budget intizomini mustahkamlash hamda budget to'g'risidagi qonunchilik buzilishlarini profilaktika qilishni ichki audit xizmatlarining asosiy vazifasi sifatida belgilaydi. Idoraviy hujjatlarda masofaviy audit, zamonaviy axborot texnologiyalari va xavf tahlilini qo'llash orqali audit obyektlarini aniqlash zarurligi ham qayd etiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlar xavfga asoslangan yondashuvni umumiy tarzda belgilaydi, biroq budget tashkilotlari uchun moliyaviy ahamiyat, nazorat zaifligi, takroriylik va raqamli risk signallarini yagona miqdoriy indeksda birlashtiruvchi operatsion model yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu metodologik bo'shliq mazkur tadqiqotning predmetini tashkil etadi.

METODOLOGIYA.

Tadqiqot dizayni va ma'lumotlar manbalari.

Tadqiqot dizayni metodologik (konstruktiv) xususiyatga ega bo'lib, sifat va miqdoriy usullarni birlashtiradi. Ma'lumotlar manbalari sifatida amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ichki audit va davlat moliyaviy nazorati hisobotlari, budget ijrosiga oid g'aznachilik va davlat xaridlari tizimi ma'lumotlari hamda ekspert baholari qo'llaniladi. Model uch bosqichda — mezonlarni aniqlash, vaznlarni AHP orqali belgilash va obyektlarni ustuvorlashtirish — quriladi.

Olti mezonli baholash tizimi.

Har bir audit obyekti (auditga yaroqli birlik) olti mezon bo'yicha 1 dan 5 gacha shkalada baholanadi. Mezonlar bir-birini to'ldiradi: dastlabki uchasi (moliyaviy ahamiyat, ehtimollik, oqibat) boshlang'ich xavfni, qolgan uchasi



(nazorat zaifligi, takroriylik, elektron signallar) esa qoldiq xavf va dalil bazasini tavsiflaydi. Mezonlarning ta'rif va baholash shkalasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Xavflarni baholashning olti mezonli tizimi

Mezon (belgi)	Tavsif	Baholash shkalasi (1–5)	Ma'lumot manbai
Moliyaviy ahamiyat (M)	Obyekt bilan bog'liq budjet mablag'lari va moliyaviy oqimlar hajmi	1 — juda kichik ... 5 — juda yirik hajm	Xarajatlar smetasi, g'aznachilik ma'lumotlari
Sodir bo'lish ehtimoli (P)	Xatar hodisasining yuzaga kelish ehtimolligi	1 — juda past ... 5 — juda yuqori	Tarixiy ma'lumotlar, ekspert bahosi
Ehtimoliy oqibat (O)	Xatar yuzaga kelganda moliyaviy va obro'ga oid zarar darajasi	1 — ahamiyatsiz ... 5 — o'ta yuqori	Ta'sir tahlili, ekspert bahosi
Nazorat zaifligi (N)	Mavjud ichki nazorat tadbirlarining zaifligi yoki yetishmasligi	1 — kuchli nazorat ... 5 — nazorat juda zaif	Nazorat muhiti bahosi, oldingi audit
Takroriylik (T)	Oldingi audit/tekshiruvlarda buzilishlarning takrorlanish chastotasi	1 — buzilish yo'q ... 5 — muntazam takrorlanadi	Audit hisobotlari, tavsiyalar ijrosi
Elektron risk signallari (E)	Raqamli tizimlardan keladigan avtomatik xatar indikatorlari soni va kuchi	1 — signal yo'q ... 5 — ko'p va kuchli signal	Indikatorlar tizimi (3-jadval)

Manba: muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Mezonlar vaznini AHP orqali belgilash.

Mezonlarning nisbiy ahamiyati teng emas. Davlat sektorida moliyaviy ahamiyat va oqibat yuqori vaznga ega bo'lishi tabiiy. Vaznlar ekspertlarning juftlik taqqoslashlari asosida AHP usuli yordamida aniqlanadi va yig'indisi birga teng bo'lishi shart. Izchillik koeffitsiyenti ($CR < 0,10$) orqali ekspert baholarining mantiqiy izchilligi tekshiriladi. Tadqiqotda qabul qilingan indikativ vaznlar 2-jadvalda berilgan.

2-jadval

Mezonlarning AHP asosida belgilangan vaznlari

Mezon	Belgi	Vazn (w_i)	Ulush, %
Moliyaviy ahamiyat	M	0,24	24%
Ehtimoliy oqibat	O	0,20	20%
Nazorat zaifligi	N	0,19	19%
Sodir bo'lish ehtimoli	P	0,15	15%
Takroriylik	T	0,12	12%
Elektron risk signallari	E	0,10	10%
Jami	—	1,00	100%

Manba: muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Xavf Ustuvorlik Indeksi (XUI) formulasi.

Har bir audit obyekti uchun yagona umumlashtirilgan ko'rsatkich — Xavf Ustuvorlik Indeksi quyidagi vaznlangan additiv model orqali hisoblanadi:

$$XUI = wM \cdot M + wP \cdot P + wO \cdot O + wN \cdot N + wT \cdot T + wE \cdot E$$

bu yerda M, P, O, N, T, E — mos mezonlar bo'yicha 1–5 oralig'idagi baholar; $wM...wE$ — ularning vaznlari (yig'indisi 1 ga teng). Vaznlar yig'indisi birga teng bo'lgani uchun XUI qiymati ham 1 dan 5 gacha oraliqda yotadi, bu uni izohlash va toifalashni soddalashtiradi. Zarur hollarda boshlang'ich va qoldiq xavfni alohida ajratish uchun ko'paytma ko'rinishidagi muqobil model — boshlang'ich xavf ($P \times O$) ni nazorat zaifligi koeffitsiyentiga ko'paytirish — qo'llanilishi mumkin; biroq additiv model barcha olti omilni shaffof va izchil tarzda birlashtirgani bois asosiy uslub sifatida tanlangan.

Budjet intizomi buzilishlari va moliyaviy xatarlar indikatorlari tizimi.

Elektron risk signallari mezoni (E) raqamli tizimlardan avtomatik shakllantiriladigan indikatorlar to'plamiga asoslanadi. Indikatorlar tizimi budjet intizomi buzilishlari va moliyaviy xatarlarning eng tarqalgan ko'rinishlarini qamrab oladi hamda har bir indikator uchun signal beruvchi indikativ chegara belgilanadi. Indikator chegaradan oshganda obyektning E bahosi mos ravishda oshadi. Indikatorlar tizimining asosiy elementlari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Budjet intizomi buzilishlari va moliyaviy xatarlar indikatorlari tizimi

Indikator	Nimadan dalolat beradi	Signal mezoni (indikativ chegara)	Manba
Smeta moddalararo ko'chirishlar hajmi	Rejalashtirish sifatining pastligi, maqsadsiz foydalanish xavfi	Yillik smeta > 10–15% qayta taqsimlangan	G'aznachilik, smeta ijrosi
Yil oxiridagi xarajatlar konsentratsiyasi	Mablag'larni shoshilinch o'zlashtirish, samarasiz sarflash	IV chorak xarajatlari > 40%	G'aznachilik ma'lumotlari
Raqobatsiz (bir manbali) xaridlar ulushi	Xaridlarda korrupsiya va qimmatlashish xavfi	Bir manbali xaridlar > 30%	Davlat xaridlari portali
G'aznachilikdagi to'lov rad etishlari	Hujjatlashtirish va intizom buzilishlari	Rad etishlar ulushi sezilarli o'sgan	G'aznachilik tizimi
Avans to'lovlarning yopilmasligi	Debitor qarzdorlik va mablag' chiqib ketishi xavfi	Muddati o'tgan avanslar mavjud	Buxgalteriya hisobi
Ish haqi fondi va shtat jadvali nomuvofiqligi	Asossiz to'lovlar, fiktiv shtat birliklari xavfi	Fond va jadval orasida farq	Ish haqi tizimi, shtat jadvali
Inventarizatsiyadagi kamomad/ortiqcha	Aktivlar saqlanishi ustidan nazorat zaifligi	Aniqlangan kamomad/ortiqcha	Inventarizatsiya natijalari
Oldingi tavsiyalar bajarilmasligi	Tizimli, takrorlanuvchi xatar (T mezoni bilan bog'liq)	Bajarilmagan tavsiyalar ulushi yuqori	Audit hisobotlari

Manba: muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Ustuvorlik toifalari.

Obyektlar XUI qiymati bo'yicha kamayish tartibida saralanadi va ustuvorlik toifalariga ajratiladi. Har bir toifa ma'lum audit choralari belgilaydi (4-jadval).

Bu audit rejasini hujjatlashtirilgan va asoslangan tarzda shakllantirishga imkon beradi.

4-jadval

XUI bo'yicha ustuvorlik toifalari va audit choralari

XUI oralig'i	Ustuvorlik darajasi	Tavsiya etiladigan audit choralari
4,00 – 5,00	Kritik	Joriy yil rejasiga majburiy kiritiladi; chuqurlashtirilgan, to'liq qamrovli audit
3,00 – 3,99	Yuqori-o'rta	Rejaga kiritiladi; standart audit va maqsadli tekshiruvlar
2,00 – 2,99	O'rta	Rotatsion qamrov; masofaviy va analitik monitoring
1,00 – 1,99	Past	Uzluksiz avtomatlashtirilgan monitoring; ehtiyojga ko'ra audit

Manba: muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida budget tashkilotlari uchun xavflarni identifikatsiya qilish, baholash va ustuvorlashtirishning yaxlit uslubi shakllantirildi. Uslub uch tarkibiy qismdan iborat: (1) olti mezonli baholash tizimi va vaznlangan XUI formulasi; (2) budget intizomi buzilishlari va moliyaviy xatarlar indikatorlari tizimi; (3) XUI bo'yicha ustuvorlik toifalarini audit rejasiga aylantiruvchi qaror qabul qilish jadvali. Bu uchta element o'zaro bog'liq bo'lib, indikatorlar tizimi elektron risk signallari (E) mezonlari orqali baholash tizimiga ulanadi.

Modelning illyustrativ qo'llanilishi.

Uslubning amaliy ishlashini ko'rsatish maqsadida budget tashkilotiga xos oltita umumlashtirilgan audit obyekti misolida hisob-kitob bajarildi. Har bir obyekt olti mezon bo'yicha 1–5 shkalada baholandi va 2-jadvaldagi vaznlar yordamida XUI hisoblandi. Natijalar 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Audit obyektlarini XUI bo'yicha baholash va saralash (illyustrativ misol)

Audit obyekti	M	P	O	N	T	E	XUI	Reyting
Davlat xaridlari	5	4	5	4	4	5	4,54	1 (Kritik)
Kapital qurilish va ta'mirlash	4	4	5	4	3	4	4,08	2 (Kritik)
Mehnatga haq to'lash va shtat jadvali	5	3	4	3	3	4	3,78	3 (Yuqori-o'rta)
Budgetdan tashqari mablag'lar	3	4	4	4	3	4	3,64	4 (Yuqori-o'rta)
Asosiy vositalar va inventarizatsiya	3	3	3	4	4	3	3,31	5 (Yuqori-o'rta)
Kommunal va xo'jalik xarajatlari	2	2	2	2	2	2	2,00	6 (O'rta)

Manba: muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlari (XUI = 4,54) va kapital qurilish (XUI = 4,08) kritik toifaga kirib, joriy yil rejasiga majburiy kiritiladi. Bu obyektlar yuqori moliyaviy ahamiyat, kuchli oqibat va ko'p sonli elektron signallar bilan



ajralib turadi. Kommunal va xo'jalik xarajatlari esa past xavf darajasiga ega bo'lib ($XUI = 2,00$), uzluksiz avtomatik monitoring rejimida qoldiriladi. Shu tariqa cheklangan audit resurslari eng yuqori qoldiq xavfli sohalarga yo'naltiriladi.

An'anaviy va xavfga asoslangan yondashuvlarning qiyosi.

Taklif etilayotgan uslubning an'anaviy siklik yondashuvdan farqlovchi jihatlari 6-jadvalda umumlashtirilgan.

6-jadval

An'anaviy va xavfga asoslangan yondashuvlarning qiyosiy tahlili

Jihat	An'anaviy (siklik) yondashuv	Xavfga asoslangan uslub (XUI)
Mavzu tanlash asosi	Navbat, rotatsiya, to'liq qamrov	Olti mezonli xavf bahosi va XUI reytingi
Resurs taqsimoti	Obyektlarga teng taqsimlanadi	Yuqori qoldiq xavfli obyektlarga yo'naltiriladi
Obyektivlik	Asosan subyektiv mulohaza	Hujjatlashtirilgan, takrorlanuvchan, miqdoriy
Raqamli ma'lumotlardan foydalanish	Cheklangan	Elektron risk signallari integratsiyalangan
Standartlarga muvofiqlik	Qisman	IIA GIAS 9.4 talablariga mos
Profilaktik salohiyat	Past, reaktiv	Yuqori, ogohlantiruvchi (proaktiv)

Manba: muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Olingan natijalar xavfga asoslangan ichki audit metodologiyasining budjet tashkilotlari sharoitida operatsionallashtirilishi mumkinligini ko'rsatadi. Modelning asosiy uslubiy hissasi olti mezonni — moliyaviy ahamiyat, ehtimollik, oqibat, nazorat zaifligi, takroriylik va elektron signallarni — yagona, izohi oson XUI ko'rsatkichida birlashtirishidir. An'anaviy ehtimollik×oqibat modeli faqat boshlang'ich xavfni baholaydi; XUI esa nazorat zaifligi va takroriylik mezonlari orqali qoldiq xavfni, elektron signallar orqali esa dalilga asoslangan, real vaqtga yaqin axborotni qamrab oladi.

Moliyaviy ahamiyat mezonining alohida ajratilishi davlat sektorining o'ziga xosligini aks ettiradi: budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi yuqori jamoatchilik ahamiyatiga ega bo'lgani uchun yirik moliyaviy oqimlar avtomatik tarzda yuqoriroq ustuvorlik oladi. Nazorat zaifligi mezoni esa auditni nafaqat xatar yuqori bo'lgan, balki mavjud nazorat mexanizmlari zaif bo'lgan sohalarga yo'naltiradi — bu COSO ramkasining nazorat muhiti komponentiga uyg'undir.

Takroriylik mezoni tizimli kamchiliklarni aniqlashga xizmat qiladi: oldingi audit tavsiyalari bajarilmagan yoki bir xil buzilishlar qaytalangan obyektlar yuqoriroq baho oladi. Bu profilaktik nazoratni kuchaytiradi va auditni «bir martalik tekshiruv» dan «uzluksiz takomillashtirish» mexanizmiga aylantiradi. Elektron risk signallari mezoni esa indikatorlar tizimi orqali g'aznachilik, davlat xaridlari va ish haqi tizimlaridagi ma'lumotlarni avtomatik ravishda xavf bahosiga aylantiradi, bu raqamli audit (data analytics, continuous monitoring) tendensiyalariga mos keladi.





Modelning amaliy ahamiyati ichki audit rejasini hujjatlashtirilgan asosga qo'yishidadir, bu IIA GIASning 9.4-talabini bevosita qondiradi. Shu bilan birga, taklif etilayotgan uslubning bir qator cheklovlari mavjud. Birinchidan, mezonlar vazni va ayrim baholar ekspert mulohazasiga tayanadi, shu sababli vaznlarni AHP orqali izchillik koeffitsiyenti bilan tekshirish va davriy qayta ko'rib chiqish zarur. Ikkinchidan, elektron signallar mezonining samaradorligi raqamli infratuzilma va ma'lumotlar sifatiga bog'liq. Uchinchidan, model statik bahoni beradi, shu bois uni kamida yiliga bir marta yangilab turish talab etiladi. Bu cheklovlar modelni rad etmaydi, balki uni joriy etishning tashkiliy shartlarini belgilaydi.

XULOSA

Tadqiqotda budget tashkilotlarida ichki auditni xavfga asoslangan metodologiya asosida qayta qurishning yaxlit uslubi ishlab chiqildi. Ilmiy yangilik sifatida xavflarni moliyaviy ahamiyat, sodir bo'lish ehtimoli, ehtimoliy oqibat, nazorat zaifligi, takroriylik va elektron risk signallari asosida identifikatsiya qilish, baholash va ustuvorlashtirishning ko'p mezonli Xavf Ustuvorlik Indeksi modeli takomillashtirildi. Modelga budget intizomi buzilishlari va moliyaviy xatarlar bo'yicha indikatorlar tizimi integratsiyalashtirilib, audit mavzularini tanlashda moliyaviy ahamiyat, ehtimoliy oqibat va nazorat zaifligi yagona reytingda birlashtirildi.

Illustrativ hisob-kitob uslubning audit resurslarini eng yuqori qoldiq xavfga ega obyektlarga yo'naltirishga imkon berishini, an'anaviy siklik yondashuvga nisbatan obyektivlik, profilaktik salohiyat va standartlarga muvofiqlikni oshirishini ko'rsatdi. Amaliy tavsiyalar sifatida ichki audit xizmatlariga: olti mezonli baholash tizimini idoraviy uslubiyatga kiritish; indikatorlar tizimini g'aznachilik va davlat xaridlari raqamli platformalari bilan integratsiyalash; mezonlar vaznini davriy qayta ko'rib chiqish va modelni yillik xavf bahosining asosiga aylantirish taklif etiladi. Kelgusi tadqiqotlar yo'nalishi sifatida modelni real ma'lumotlar bazasida empirik sinovdan o'tkazish va elektron signallar mezonini mashinaviy o'qitish usullari bilan boyitish istiqbolli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. — Toshkent, amaldagi tahrir. [Elektron resurs]. — <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, O'RQ-677-son, 2021-yil 25-fevral. [Elektron resurs]. — <https://lex.uz/docs/-5307886>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat moliyaviy nazorati va audit tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4611-son qarori, 2019-yil 23-fevral.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-128-son qarori, 2022-yil 14-fevral.





5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Moliya vazirligi huzurida Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish hamda budjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 129-son qarori, 2022-yil 24-mart.

6. The Institute of Internal Auditors (IIA). Global Internal Audit Standards. — Lake Mary, FL: The IIA, 2024 (Standard 9.4).

7. The Institute of Internal Auditors (IIA). Developing a Risk-Based Internal Audit Plan. — 2nd ed. — Lake Mary, FL: The IIA, 2025.

8. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO). Internal Control — Integrated Framework. — 2013.

9. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO). Enterprise Risk Management — Integrating with Strategy and Performance. — 2017.

10. Griffiths P. Risk-Based Auditing. — Aldershot: Gower Publishing, 2005. — 196 p.

11. Saaty T.L. The Analytic Hierarchy Process: Planning, Priority Setting, Resource Allocation. — New York: McGraw-Hill, 1980.

12. INTOSAI. ISSAI 100 — Fundamental Principles of Public-Sector Auditing. — Vienna: INTOSAI, 2019.

13. Ismailov X. Budjet tashkilotlarida ichki audit tadbirlarini o'tkazish hamda natijalarini rasmiylashtirishni takomillashtirish // Прикладные науки в современном мире. — 2025. — № 4(13). — 4–7-betlar.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy